



## “TEMUR TUZUKLARI” DA SALTANATNI IDORA QILISH TUZUKI VA UNING AHAMIYATI

*Hasanboyev To’raqul Foziljon o’g’li – Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o’qituvchisi*

*Turdiqulova Maftuna Laziz qizi - Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi*

**Annostatsiya.** Ushbu maqolada Amir Temur tuzuklari asosida tuzilgan davlat boshqaruvi tamoyillari va ularning davlat boshqaruvidagi o’rni tahlil qilingan. Amir Temur davlat boshqaruvining tarixdagi boshqa hukmdorlar davlati bilan o’xshashlik va farqlik taraflari yoritib berilgan.

**Kirish so’zlar:** Amir Temur, Temur tuzuklari, davlat boshqaruvi, markazlashgan hokimiyat, harbiy boshqaruv, xalq hukmdori, Yasa qonunlari, Akbarshoh.

Amir Temur o‘z davrida kuchli va barqaror davlatni shakllantirish orqali nafaqat Movarounnahr, balki jahon tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Uning “Temur tuzuklari” asari davlat boshqaruvi, harbiy strategiya, va siyosiy tamoyillarni aks ettirgan muhim hujjat bo‘lib, unda hukmronlikni amalga oshirishning asosiy qoidalari, rahbar sifatida bo‘lishi kerak bo‘lgan fazilatlar, va davlat ichidagi tartiblarni mustahkamlash masalalari keng yoritilgan. Temur tuzuklari Movarounnahr va Turon o’lkasidagi davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishning muhim manbasi hisoblanadi[1. 36-b.].

Amir Temur davlatni boshqarishda adolat, mehnat va intizom tamoyillariga asoslangan. Ayniqsa, bosib olgan hududlaridagi obro’li kishilarni jumladan sayyidlar, ulamolar, fuzalo va mashoyixlarni hurmat qilib, suyurg’ol bergenidan, Amir Temurning qanchalik yaxshi insonlarni qadrlashi, dinni hurmat qilishini ko’rishimiz mumkin. Temur tuzuklarining birinchi bo‘limida davlat boshqaruvining nazariyasi, davlatning ichki va tashqi siyosati, shuningdek, amaldorlar va fuqarolar o’rtasidagi munosabatlar tartibga solingan. Ushbu tamoyillar asosida davlatda markazlashgan hokimiyat va kuchli boshqaruv tizimi tashkil etilgan. O’z hukmronligini maqsad va vazifalarni aniq belgilash orqali mustahkmlagan.

Temuradolatni davlat barqarorligining eng muhim omili sifatida ko‘rgan. U har bir fuqaroning huquqlari va majburiyatlarini belgilab bergan. Xususan har bir fuqaroga vazifalar berib, maoshlar tayinlagan. Hattoki mamlakatlarda mavjud bo‘lgan



gadolarga ham vazifalar yuklatib, ularni gadolikdan qutqargan. Hukmdor sifatida u xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yib, adolatsiz amaldorlarni Nafsi buzuq, axloqsiz insonlarni mamlakatdan quvib chiqargan. Hattoki uning davlatida o'g'ri qaroqchilar bilan ham jiddiy kurashib, ularni "Yaso" asosida jazolangan. Amir Temur davrida tuxmat illatiga ham jiddiy qaralib, gunohiga 4 kishi guvohlik bergenidan so'ng, gunohiga yarasha jazoga muqarrar ko'rildi. Temur tuzuklarida boshqaruvi tizimi ikki asosiy tamoyilga asoslangan: markazlashgan hokimiyat va ierarxik tuzilma. Temurning fikricha, davlat boshqaruvi hukmdorning kuchi va xalq bilan aloqasining mustahkamligiga bog'liq [2.58-b.].

Temur tuzuklarida davlat boshqaruvi tamoyillari:

1. Davlat boshqaruvida mas'uliyatlilik. Temurning fikricha, hukmdor xalqi oldida mas'ulidir. Bu tamoyil bugungi boshqaruvi tizimlarida shaffoflik va mas'uliyat prinsiplariga mos keladi.

2.

Harbiy boshqaruvi va mudofaa tizimi. Tuzuklarda davlatning harbiy qudrati va mudofaa tizimi batafsil yoritilgan. Temur harbiy kuchlarni tizimli boshqarish orqali muvaffaqiyatga erishgan.

3. Xalq bilan aloqani mustahkamlash. Temur xalqi bilan yaqin bo'lish va ularning muammolarini hal qilishni hukmdorning asosiy vazifasi deb hisoblagan.

4. Ilm va ma'rifikatga e'tibor. Temur ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratgan. Bugungi ta'lim tizimidagi islohotlar bu tamoyil bilan uyg'unlik kasb etadi [5.133-134-b.]

Amir Temurning kuchli va mustahkam davlat tizimi, markazlashgan davlat hokimiyati tarixdagi bir nechta buyuk shohlarning sultanatiga o'xshab ketadi. Masalan: Mo'g'ullar imperiyasining asoschisi va birinchi buyuk xoni bo'lgan Chingizzon davlatiga qiyoslasa bo'ladi. Chunki har ikkala hukmdor ham davlatini yagona hokimiyat asosida mustahkamlashga intilgan. Chingizzon "Yasa" qonunlarini joriy qilgan bo'lsa, Amir Temur "Tuzuklar"i asosida davlatni boshqargan [3.89-90-b.] Ularning boshqaruvi tizimidagi asosiy farq esa, Chingizzon ko'chmanchi hayot tarzini ma'qullasa, Temur esa shaharlarni rivojlantirishga asosiy e'tiborini qaratadi.

Boburiylar

sulolasining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Akbarshoh (1556-1605) Hindistondagi Boburiylar davlati humronligida yorqin iz qoldirgan hukmdorning davlatini ayrim bir jihatlari Sohibqiron davlatiga o'xshab ketadi. Akbarshoh idora qilgan mamlakatda hind dinlariga hurmat ko'rsatgan bo'lsa, Temur hududlarida turli diniy jamoalar o'rtasida muvozanatni saqlagan. Har ikki humdor viloyatlarni boshqarishda tajribali noiblarni tayinlash tamoyiliga amal qilgan. Ammo davlati



o'rtasida farqlar ham mavjud bo'lgan[4.125-126-b.]. Akbarshoh o'z salatnatida mahalliy hind urf-odatlarini qabul qilgan bo'lsa, Temur esa boshqaruvni islomiy qonun-qoidalariga asoslangan. Chunki Amir Temur hukmdor sifatida islom diniga katta e'tibor qaratadi. Xususan davlat boshqaruvida islom dini asos sifatida qabul qilgan. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va boshqa shaharlar islomiy ilm-fan va madaniyat markaziga aylantiriladi. Islom olimlari, va ulamolariga chuqur hurmat ko'rsatgan. U ko'plab islomiy allomalar va tasavvuf ulamolarini o'z saroyiga taklif qilgan va ularga himoya ko'rsatgan[3.91-b.].

Amir Temur davlat boshqaruvi tamoyillari ko'plab hukmdorlar bilan o'xshashlik ko'rsatadi. Uning adolat, markazlashgan hokimiyat va madaniyatni rivojlantirishga asoslangan boshqaruv uslubi uni tarixdagi buyuk davlat arboblari qatorida ko'rsatadi. Ammo Temurning o'ziga xos jihat uning harbiy kuch va siyosiy strategiyani uyg'unlashtirish orqali barqaror saltanat yaratganida namoyon bo'ladi.

Amir Temur davridagi boshqaruv tizimi tamoyillari bugungi zamonaviy siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan."Temur tuzuklari" asari nafaqat o'z davrida, balki hozirgi kunda ham davlat boshqaruvining muhim manbalaridan hisoblanadi. Amir Temur davrida hukumatning samarali boshqaruviga kuzatilib, ya'ni markazlashgan boshqaruv tizimi va adolatni ta'minlash bugungi kunda barqaror davlatlarni boshqarishning asosiy tamoyillari hisoblanadi[5.137-b.].

Tuzuklarda soliqlarning adolatli taqsimoti, xalqning iqtisodiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan tamoyillar hozirgi iqtisodiy siyosat uchun muhim ahamiyatga ega. Xususan u shahar va qishloqlardagi odamlardan jon solig'i va uy solig'ini olishni man etadi. Bunday qonunlar xalqing roziliginini ta'minlagan. Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan harbiy rejalashtirish va strategik yondashuv hozirgi harbiy ta'lim va boshqaruv tizimlariga o'rnak bo'lmoqda. Temurning madaniyat va ilm-fanni rivojlantirishga qo'shgan hissasi zamonaviy jamiyatlarda ta'lim va fan sohasining rivojlanishi uchun o'rnak bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Temur tuzuklari" nafaqat o'z davrining boshqaruv tizimi uchun, balki bugungi kunda ham davlat boshqaruvining turli sohalarida qo'llaniladigan muhim tamoyillarni o'z ichiga oladi. Tuzuklardagi adolat, qonuniylik, iqtisodiy barqarorlik, harbiy strategiya va madaniyatga e'tibor qaratilgan tamoyillar zamonaviy davlat boshqaruvi uchun beqiyos manba hisoblanadi[2.46-b].

Amir Temur tomonidan asos solingenan boshqaruv tamoyillari o'z davrida saltanatni barqaror va mustahkam qilishda muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda ushbu tamoyillar zamonaviy boshqaruv tizimlari uchun ham universal qadriyat



sifatida xizmat qilmoqda. Adolat, tartib, mas'uliyat va ilm-fanga e'tibor kabi tamoyillar davlatni rivojlantirishning asosiy garovi bo'lib qolmoqda. Temur tuzuklari nafaqat tarixiy manba, balki hozirgi zamonaviy boshqaruvga oid muhim darslar beradi. Shu sababli, bu asar kengroq o'rganilishi va undan boshqaruv tizimida foydalanimishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Toshkent. 2017.
2. Karimov I. A. Amir Temur - buyuk sohibqiron. Toshkent. 2018.
3. Mustafoev U. Amir Temur davlati tarixidan. Buxoro. 2021.
4. Rahmonov A. Adolatli jamiyat tamoyillari. Amir Temur falsafasi. Toshkent. 2015.
5. Temur tuzuklari. Toshkent. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1991.